Kimyoviy komponentlar bilan ifloslangan havo muhiti insonning bu moddalar bilan aloqa qilish xususiyatini va ularning organizmga kirish yoʻllarini

belgilaydi. Atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning tarkibi asosan nafas olish ta'sirini belgilaydi. Kimyoviy ta'sir etish xususiyati ularning boshqa omillar (yuqori harorat va namlik, shamolning tabiati va tezligi, relfning tuzilmasi, me'moriy va rejalashtirish rivojlanishining tuzatuvchi xususiyatlari) bog'liqligi bilan xarakterlanadi [54].

Azot dioksidi o'tkir ta'sir qilganda surunkali obstruktiv kasalliklarga chalingan bemorlarda o'pka funksiyasining pasayishi, o'pka to'qimasining bronxokonstriktiv omillar ta'siriga reaktivligining oshishi va astma bilan og'riqan odamlarda ahvolning yomonlashishi kuzatiladi. Muallaq moddalar yuqori va quyi nafas yo'llariga ta'sir qilib, nafas olish tizimining surunkali kasalliklari kuchayishiga va bronxit, pnevmoniya, astma bilan og'riqan bemorlarda kundalik faoliyatning pasayishiga, hurujlarning cho'zilishiga va astmatiklarda hurujlararo davrining qisqarishiga olib keladi. Bir qator tadqiqotlarda fotokimyoviy va regenerativ smog elementlari, shu qatorda ozon, azot dioksid va kislotali aerozollar kabi ifloslantiruvchi, shu jumladan, o'tkir respirator infeksiyalari, yuqori nafas olish yo'llari katar va aholi o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi ta'kidlab o'tilgan [38].

Atmosfera havosi ifloslanishining yuqori darajasi bilan ob-havoning keskinligi bilan birgalikda patologik jarayon ko'pincha o'tkir shamollash yoki laringotraxeit, obstruktiv bronxit kabi jarayonlarni xronizatsiyalanishi va bronxial astma rivojlanishi bilan kechuvchi boshqa nafas olish kasalliklari shaklida uchraydi. Lipetsk viloyatida shamollash va post-shamollash darajasi Rossiya Federatsiyasining o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha yuqoridir [64].

Primorskiy o'lkasida bronxopulmonar patologiyaning tarqalishi va shakllanishiga murakkab ekologik ta'sir muammosi deyarli o'rganilmagan. Tibbiy iqlimshunoslik va rehabilitatsiya davolash instituti, Uzoq Sharq Hidrometeorologiya mintaqaviy tadqiqot institutida ekologik noxush tumanlar aniqlandi, eng katta antropogen ifloslanishi mintaqalari aniqlandi. Vladivostok Davlat tibbiyot universitetida (VDTU) mintaqaviy sanitariya-gigiyena bo'sag'a mezonlarini ishlab chiqildi va havo ifloslanishi omillarining nafas olish tizimiga ta'sirining tabiati va darajasini o'rganib chiqildi [8].

Yu.A.Raxmanin va hammualliflar (2004) aholi salomatligi holatini o'rganishda invaziv bo'lmagan biokimyoviy diagnostika usullaridan foydalanish istiqbollari ishora qiladilar. Mualliflar atrof-muhit ifloslanishi (Moskva, Cherepovets, va boshqalar) turli hududlarida yashovchi bolalar salomatlik holati har tomonlama biokimyoviy o'rganish o'tkazildi. Atmosfera havosining ifloslanish darajasi va biokimyoviy parametrlarning barqaror o'zgarishlari bo'lgan bolalar ulushi o'rtasida aniq bog'liqlik topildi [50].

Bronxial astmaning sutkalik kasallanish darajasi o'zgarishining ozon konsentratsiyalariga bog'liqligini tahminlovchi logistik modellar olindi. Bu smog epizodlari va shaharlarda havo ifloslanishi keskin bir vaqtning o'zida ortishi davomida, yurak-qon tomir kasalliklari o'lim va bu kasalliklar bo'yicha tez tibbiy yordamga murojaatlar ortadi, deb belgilangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, neonatal o'limning ortishi atmosfera havosida diametri 10 mkm dan kam bo'lgan aerosol zarrachalarining ko'payishi bilan aniq bog'liqdir [19].

Zamonaviy sharoitlarda inson doimiy ravishda antropogen kelib chiqish tabiatiga ega bo'lgan zararli omillari majmuasi, jumladan, kanserogenlar ta'siri ostida murakkab kimyoviy dunyo bilan o'ralgan bo'lib, onkologik kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu patologiyani shakllantirishning asosiy omili polisiklik aromatik uglevodorodlar (PAU), shu jumladan benz(a) piren bilan havo ifloslanishidir.

Benz(a)pirenining atrof-muhitdagi tarkibi odamlarda kanserogen yuklamaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida hisobga olinadi. Benz(a)pirenning hosil bo'lishi va atmosferaga chiqishining asosiy manbalari qora va rangli metallurgiya, issiqlik va energetika, neftni qayta ishlash va kauchuk ishlab chiqarish korxonalaridir [15, 86].

Benz(a)pirenining havodagi eng yuqori konsentratsiyalari ( $10-15 \text{ ng/m}^3$  gacha REK- $1 \text{ ng/m}^3$ ) yirik alyuminiy ishlab chiqarish zavodlari (Bratsk, Shelexov, Krasnoyarsk, Novokuznetsk) ning yaqin atrofida joylashgan shaharlarga xos ekanligi aniqlandi.  $6-10 \text{ ng/m}^3$  konsentratsiyalari yirik qora metallurgiya korxonalarini (Quy Tagil, Magnitogorsk, Chelyabinsk, Novotroitsk va b.) bo'lgan shaharlar uchun xosdir.

Saraton bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lgan taxminan kanserogen moddalar (mis, tarkibida nikel, PAU) bilan atrof-muhit ifloslanishi yuqori darajada bo'lgan shaharlarga Karabash, Yuqori Ufaley, Norilsk, (mis va tarkibida nikel-metallurgiya kombinati davlat), Sterlitomak (neftkimyo va xlor saqlovchi moddalar ishlab chiqarish), Magnitogorsk, Krasnoturinsk, Kamensk-Uralskiy, Novokuznetsk (po'lat ishlab chiqarish, alyuminiy eritish) shaharlarini o'z ichiga oladi [33, 44, 61, 63, 65].

Bu benz(a)piren bo'yicha REK darajasi 8-9 marta ko'p bo'lgan PAU bilan uzoq muddatli atmosfera havosi ifloslanishi, aholi o'pka saratoni bilan kasallanish statistik sezilarli o'sishiga olib keladi, deb ko'rsatilgan. Benz(a)piren sababli atmosfera havosi ifloslanishi shaharlarda erkaklar o'rtasida o'pka saratoni bilan kasallanishidagi hisoblangan hissasi 13-32% oralig'ida ekan. Korxonadan 1 va 2 km masofada joylashgan maktablarga qatnovchi bolalar siydigida benz(a)pirenining konsentratsiyasi ham oshgan bo'lib, bu ularning sog'lig'iga yuqori aerogen xavf mavjudligini ko'rsatadi.

S. A. Mun va hammualliflar (2006) atmosfera havoda 1986 yildan 2002 yilgacha bo'lgan davr uchun Kemerovoda benz(a)pirenning yillik o'rtacha kunlik konsentratsiyasi 3 dan 10 ng/m<sup>3</sup> gacha o'zgarib turganini ko'rsatganlar. Mualliflar xavfli o'smalarning ba'zi shakllari benz(a)piren konsentratsiyasi bilan va turli vaqt oralig'ida o'zgarishi bilan bog'liqligini aytib o'tgan.

Kemerovoda, atmosfera havoda benz(a)piren yillik o'rtacha kundalik konsentratsiyalari bilan erkaklar va ayollarda o'pka va oshqozon saratoni, shuningdek, ayollarda teri, qalqonsimon va tuxumdon saratoni bilan kasallanish o'rtasida statistik jihatdan ishonchli to'g'ri kuchli korrelyatsiya bog'liqlik ( $r=0.81-0.97$ ) aniqlandi. Mualliflar benz(a)pirenning atmosfera havosidagi o'rtacha sutkalik konsentratsiyalari va kasallanish ko'rsatkichlari tahlilidan foydalanib, sanoat shahrida uzoq muddatli onkologik vaziyatni bashorat qilish mumkin deb hisoblaydilar [42].

Bir qator tadqiqotchilar ifloslangan atmosfera havosining salomatlikka qisqa muddatli ta'sirini tahlil qilishda odatda alohida komponentlarning kunlik o'rtacha qiymatlaridan foydalanilishini aniqladilar. Biroq, ma'lum bir vaqtda

o'lgan alohida konsentratsiyalar tasodifiy qiymatlar bo'lib, ma'lum bir o'lchov nuqtasida faqat ma'lum bir vaqtda ifloslanishni ko'rsatadi. Ular zararli moddalar chiqindilarining ta'sirini, iflosliklarning tashilishi va tarqalishini belgilovchi atmosfera jarayonlarini aks ettiradi va har qanday tasodifiy o'zgaruvchi sifatida ma'lum xatoliklarni o'z ichiga oladi. Faqat uzoq vaqt davomida olingan o'rtacha qiymatlar (oy,yil) tadqiqot maqsadlari uchun ishonchli bo'lishi mumkin. Agar qisqa muddatli sifat ko'rsatkichlari qo'llanilsa, havoning ifloslanish darajasini to'liq hisobga olish mumkin emas.

Uzoq vaqt davomida olingan o'rtacha xususiyatlar meteorologik o'zgarishlarga chidamli bo'lib, iqlim sharoitlarining kasallanishga ta'sirini istisno qilish imkonini beradi. Uzoq vaqt davomida kuzatuvlarning kuchi shundaki, bunday tadqiqotlar bizga trendni aniqlash, omillarning bevosita va bilvosita ta'sirini hisobga olish, jarayonning surunkali ekanligini va kasallanishni bashorat qilish modellarini yaratish imkonini beradi [25, 58, 93].

L.V.Veremchuk, N. A. Cherpak, T. A. Gvozdenko va M.V.Volkova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Vladivostokda nafas olish kasalliklarining shakllanishi murakkab sababiy munosabatlarga ega ekanligini aniqladi. Havo ifloslanishi nafas olish kasalliklariga (12,5-18,6%) ta'siri yuqori sur'atlarini shakllantirish uchun asosiy sabab emas, bu esa ijtimoiy, genetik va boshqa sabablar hayot tarzida yanada muhim "hisobga olinmagan va yashirin" hissa ekanligini ko'rsatadi.

Biroq, havo ifloslanishining ta'sir davomiyligi va muntazamligi tufayli nafas olish tizimi kasalliklari bilan bog'liq salomatlikni jiddiy muammolariga olib kelishi mumkin. Vladivostokda o'smirlar va bolalarda nafas yo'llari kasalliklarining umumiy kasallanish darajalarining shakllanishi barcha texnogen havo ifloslantiruvchi moddalarning birgalikdagi ta'siriga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Bolalarda ifloslanishning nomuvofiq yaxlit ta'siri fonida havodagi uglerod oksidiga nisbatan sezgirlik ortadi. Shaharning katta yoshdagi aholisi ifloslangan atmosfera havosining tashqi salbiy ta'siriga ko'proq moslashgan, lekin u azot

dioksidi va muallaq moddalarning ko'payishiga ham faol javob ta'sir ko'rsatadi [13, 14].

Nafas olish tizimi kasalliklari belgilari va muallaq zarralar va qo'zg'atuvchi gazlar bilan havo ifloslanishi uzluksiz monitoringini kundalik qayd etish asosida "panel" o'rganish turiga oid epidemiologik tahlil yuqori va quyi nafas yo'llaridan o'tkir reaksiyalar ifloslanishga (odatda belgilangan REKcs yuqori bo'lmagan) ham nisbatan past kundalik cho'qqilari salbiy ta'sir o'rnatish imkonini berdi, degan fikrlar bor. Ko'rinib turibdiki, bronxial astma, bronxial obstruktiv kasalliklar va allergik dermatozlar tarqalganligi shaharlarda mayda zarralar, azot dioksidi va oltingugurt dioksidi bilan havoning ifloslanishi bilan bog'liq bo'lib, bunda REKning quyi miqdorlarini belgilash maqsadga muvofiqdir [86].

Ma'lumki, inson salomatligi xavfsizligini ta'minlash maqsadida, qonun hujjatlariga muvofiq, inson bilan aloqada bo'ladigan barcha kimyoviy moddalarni gigiyenik me'yorlashtirish kerak (REK, TXMD belgilash).

Hozirgi vaqtda atrof-muhit omillarining aholi salomatligiga ta'sirini baholash uchun xavf-xatar yondashuvi deb ataladi, unga ko'ra, alohida ekologik omillar va ularning kombinatsiyalarini baholashning asosiy mezonlari aholi salomatligiga ta'siri xavfi ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qilishi kerak. Antropogen ekologik omillar aholi o'rtasida patologiyaning shakllanishi uchun xavf omillari hisoblanadi. Xavfni baholash tartibi eng muhim amaliy vazifalarni hal etish va mas'uliyatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qaratilgan. So'nggi yillarda aholi salomatligiga salbiy ekologik omillarni ta'sirida xavfni baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar paydo bo'ldi [5, 36, 45, 61, 90].

Bir qator mualliflarning tadqiqotlari surunkali atrof-muhit ifloslanishi sharoitida inson tanasi kompensator va adaptiv mexanizmlarni safarbar qilishi, ularni zahirasi vaqt o'tishi bilan kamayishini ko'rsatadigan materiallar olindi.

Keyinchalik organizmning adaptiv imkoniyatlari toliqadi va buziladi: boshqaruv tizimlari tarangligi va energetik gomeostaz muvozanati buziladi, yurak faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini funksional holati muvozanati



buziladi, funksional zaxiralari kamayadi, yallig‘lanish va reproduktiv gomeostaz a‘zolarining onkologik kasalliklari ko‘payishi mumkin.

Bularning barchasi dezadaptatsiyaga, kasallanish xavfini ortishi, kasallikoldi holatlarning rivojlanishi, asosiy patologik jarayonlarning xronizatsiyasi, tananing adaptiv imkoniyatlarining pasayishi, ya‘ni ekologik omillar aholi salomatligini shakllantirilishida eng muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ekologik va ijtimoiy sharoitlarda atrof-muhitning inson salomatligiga ta‘siri mexanizmlarini, shu jumladan, organizmga nomuvofiq ekologik omillar ta‘sirini va ularni oldini olish yo‘llarini yanada o‘rganishni talab qiladi.

Yuqoridagilarning barchasidan xulosa qilish mumkinki, adabiy materiallar aerogen va suv aralashmalarining bolalar va kattalar salomatligiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Biroq, ko‘pmuhitli ifloslanishdan aholiga xavf-xatar darajasi va usullari bo‘yicha adabiyotlarda ma‘lum bir nomuvofiqlik bu masalani yanada ko‘proq o‘rganishni talab qiladi. Metallurgiya, issiqlik va energetika va ko‘mir sanoati korxonalarining ko‘plab joylashgan hududida yirik sanoat markazida atrof-muhit ifloslanishi xavfini miqdoriy tavsiflash hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

### **3. Atmosfera havosining sanitariya tekshirish usullari**

Atmosfera havosidan sinama olishda bir vaqtda havo harorati, namligi, barometrik bosimi aniqlanadi. Havodan sinama olish usullari: aspiratsion usul yordamida tekshiriladigan havo elektroaspirator yoki nasoslar yordamida filtrlar, yutuvchi eritmalar orqali o‘tkaziladi. Bunda o‘tkazilayotgan havoni tezligi va hajmi quruq reometr orqali aniqlab turiladi.

Havodan olingan sinamalarga yo‘llanma to‘ldirilib laboratoriyaga tekshirish uchun jo‘natildi, yo‘llanmada sinamaning turi, olingan sharoitlari ko‘rsatildi. Sinamalarga olingan havo sinamasini aspiratsion yo‘li bilan yutuvchi eritma solingan maxsus idishlardan o‘tkazildi. Yutuvchi eritmaga olingan va filtrlarga olingan sinamalar tekshirilishi kerak bo‘lgan moddalarga maxsus usullar yordamida konsentratsiyasi aniqlandi. Havoni tekshirishda kimyoviy

tarkibini va iflosliklarini tezkorlik bilan barcha boskichlarida qo‘shib aniqlash ko‘zda tutiladi. Havodagi chang miqdorini aniqlashda AFA-V-10 filtri qo‘llanildi. Sinama olishdan avval filtr g‘ilofidan olinib tortildi va og‘irligini belgilab yana g‘ilofga solib qo‘yildi. Sinama olish joyiga borib g‘ilofidan olindi va patronaga (allonj) o‘rnatildi. U aspiratorga rezina naylar orqali ulandi va sinama olish joyiga o‘rnatildi. Sinama olishda, filtrning og‘irligi 1 mg dan kam bo‘lmasligi va 50 mg dan oshib ketmasligiga amal qilindi. Sinama olib bo‘linganidan so‘ng, filtr patronadan olindi va g‘ilofga solinib laboratoriyaga keltirildi. Laboratoriyada filtrning oldingi og‘irligi keyingisidan o‘rtasidagi farqi aniqlandi va tortib o‘tkazilgan havo hajmiga bo‘linib normal sharoitda 1 kub/m havoga necha mg chang to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Changni og‘irlik usulida aniqlashdan tashqari kimyoviy usulda miqdoriy aniqlashdan ham foydalanildi. Tortib o‘tkazilayotgan havoning hajmini reometrlar yordamida aniqlandi. Reometrlar havoni tortib o‘tkazishi bo‘yicha 1:3:610 l/min bo‘ldi. Hajm tezligini bilgan holda vaqt birligini davomiyligi asosida tortib o‘tkazilayotgan havoni qancha o‘tkazishni aniq aytib berish mumkin.

Tekshiruvlarni aniq va ishonchli bo‘lishida sinama olish joylarini to‘g‘ri tanlash, sinama olish vaqtini va usulini aniqlash katta ahamiyatga ega. Sinama olishdan oldin ifloslantiruvchi manbani batafsil o‘rganish kerak. Vaqt hisobida ifloslanishni qaysi vaqtda ko‘p bo‘lishini aniqlash, har xil nuqtalarda taxminan bo‘lsa ham ifloslanish darajasini, ifloslanish turini, meteoosmillar va boshqalarni aniqlash kerak. Shularni aniqlagandan so‘ng havodan sinama olish joyi va vaqti, sinamalar soni, nazorat qilish muddatining davomiyligi aniqlanadi va b.

Maksimal bir marotabalik sinama qisqa vaqt ichida (15-20 min) eng kamida 25 ta sinamani asosiy ifloslantiruvchi manba oldida, ya’ni shamol esish tomonida havoning ifloslangan vaqtida olindi.

Oltinugurt II oksidini aniqlash. Oltinugurt gazini ushlab olish jarayonida yutuvchi eritmadagi kaliy xlorat bilan oksidlanishiga keyin sulfat ionini bariy xlorid bilan o‘zaro ta’sir etishi va cho‘kma xosil bo‘lishiga asoslangan. Sulfatlarni va sulfat kislotasini ta’sirini AFA-10 filtri orqali ushlab

qolish bilan yo‘qotildi, bu filtr yutuvchi asbob oldiga patronaga qo‘yib ulab qo‘yildi. Oltinugurt II oksidi bir marotabalik konsentratsiyasini aniqlash uchun Rixter yutuvchi eritmalik asbobi orqali havo 4 l/min. dan 20 minut davomida tortib o‘tkazildi.

Umumiy kasallanishlarni o‘rganishning asosiy manbalaridan biri, aholi orasida o‘tkaziladigan profilaktik va maqsadli tibbiy ko‘riklar hamda dispanser kuzatuvlaridir. Bu usul orqali yashirin kechuvchi, oldindan ma‘lum bo‘lmagan yoki aholini faol ravishda tibbiy yordam olish uchun murojaat etishga majbur qilmagan surunkali kasalliklar aniqlanadi.

#### **4. Taxtako‘pir tumanining ijtimoiy-gigiyenik tavsifi.**

Taxtako‘pir tumani - Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tumani bo‘lib, 1928 yil may oyida tashkil qilingan. 1963 yil Taxtako‘pir tumani tugatilib, Chimboy tumaniga birlashtirilgan. 1965 yili o‘z nomi bilan Chimboy tumanidan ajralib chiqqan.

Taxtako‘pir tumani janubdan Beruniy, janubiy-sharqdan Ellikqal‘a, g‘arbdan Qorao‘zak, shimoliy-g‘arbdan Mo‘ynoq tumani, shimoliy-sharqdan Qozog‘iston Respublikasi va sharqdan Navoiy viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 21,1 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 42,6 ming kishi (2004). Tumanda 1 shaharcha (Taxtako‘pir), 8 ovul fuqarolar yig‘ini (Beltov, Janadaryo, Mulik, Otako‘l, Taxtako‘pir, Qoraoy, Qorateran, Qo‘ng‘irotko‘l) bor. Markazi — Taxtako‘pir shaharchasi.


Tuman hududi Amudaryo quyi oqimi chap sohilida joylashgan. Rel‘efi, asosan, tekislik va Beltov qirlaridan iborat. Shimoliy-sharqi Qizilqum cho‘li bilan tutashadi. Tumanda Borshining tog‘i (balandligi Qorateran ko‘lining yuzasidan 35–37 m, Qizilqum bilan tutashgan joyda), Miskin, Jalanash qumi, Amanda, Oqqum tepaliklari, Qorataqir, Shertaktaqir tekisliklari mavjud. Qizilqum cho‘li qo‘ylar uchun asosiy yaylov hisoblanadi. Beltovda qurilish materiallaridan gips, shag‘al va boshqalar bor. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq, qishi sovuq. Yillik o‘rtacha temperatura 11°. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi —6°, eng past temperatura —35°. Iyulning o‘rtacha temperaturasi

27°, eng yuqori temperatura 43°. Yillik yogʻin miqdori 100 mm, asosan, qish va bahorda yogʻadi. Tuman ekinzorlari Qizketgan kanalidan ajralib chiqqan Quvonchyorma kanali va uning tarmoklari (Timpiy, Boʻzyop, Jilvonyop, Badrakyop)dan sugʻoriladi. Eng yirik Qorateran koʻlida (maydoni 126 km<sup>2</sup>) baliq urchitiladi. Togʻ etagidagi bu koʻl sohillari dam olish joyi hisoblanadi. Undan tashqari Otakoʻl, Mavdak, Echkiolgan, Qorakoʻl, Aqbas va boshqa koʻllar bor. Tuproqpari botqoq, oʻtloqi botqoq, shoʻr, boʻz, taqir, sur, qoʻngʻir va qumli tuproqlardan iborat.

Qumliklarda saksovul, selin, quyonsuyak, qizilcha, yantoq, oqbosh, ajriq, qoraborak, turangʻil, jiyda, yulgʻun, tol, Beltov qirlarida oqshuvoq va shoʻralar oʻsadi. Yovvoyi hayvonlardan qobon, quyon, jayran, boʻri, tulki, chiyaboʻri, boʻrsiq, qoʻshoyoq, koʻrsichqon; sudraluvchilardan ilonlar, har xil kaltakesaklar, toshbaqa; qushlardan tuvaloq, toʻrgʻay, chumchuq, qargʻa, burgut, boyoʻgʻli, toʻqaylarda qirgʻovul, qarchigʻay, qirgʻiy, koʻllarda gʻoz, oʻrdak va boshqa uchraydi. Baliqlardan sazan, laqqa, oq amur, oq qayroq (jerex) va boshqa koʻp, ondatra ham bor.

Aholisining asosiy qismini qoraqalpoq va qozoqlar tashkil etadi, shuningdek, oʻzbek, qirgʻiz, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining oʻrtacha zichligi 1 kv.kilometrda 2 kishi. Shaharliklar 17,1 ming kishi, qishloq aholisi 25,5 ming kishi.

---



#### **4.1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi Tahtako'pir tumani.**

Tuman iqtisodiy negizini paxtachilik va chorvachilik tashkil etadi. Taxtako'pir tumanida "Taxtako'pirdon" sanoat korxonasi, 123 ta kichik va o'rta xususiy korxonalar, 7 aksiyadorlik jamiyati, Qoraqalpog'iston — Qozog'iston "Taxtaqishloqmash" qo'shma korxonasi, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar, savdo, madaniy, maishiy xizmat ko'rsatish shohobchalari bor. Elektr energiya Taxiato'sh issiqlik elektr stansiyasidan olinadi. Tuman qishloq xo'jaligi asosan, paxtachilik, g'allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Sholikorlikka va qorako'lchilikka ham jiddiy e'tibor berilmoqda, shuningdek, bog'dorchilik, sabzavot va polizchilik ham rivojlangan. Taxtako'pir tumanida 32,7 ming ga maydonda dehqonchilik qilinadi. Paxta, don, sholi, kartoshka, sabzavot va poliz, yem-xashak ekinlari ekiladi. Tumanda 10 shirkat, 264 fermer xo'jaligi, 1 fermer xo'jaliklar uyushmasi mavjud. Shundan 4 shirkat xo'jaligi qorako'lchilikka ixtisoslashgan, qolganlarida, paxta, sholi bug'doy yetishtiriladi. 264 fermer xo'jaligidan 254 tasi dehqonchilik, 3 tasi bog'dorchilik, 7 tasi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Tuman xo'jaliklariga 5 muqobil MTP xizmat ko'rsatadi. Tuman va jamoa shaxsiy xo'jaliklarida 3997 qoramol (shundan 1316 sigir), 40255 qo'y boqiladi, shuningdek, tuya, yilqi, echkilar ham bor. 23 umumiy ta'lim maktabida 10446 o'quvchi ta'lim oldi. Musiqa maktabi, 2 kasb-hunar kolleji, cho'pon

bolalar maktab-internati, test markazi mavjud. Madaniyat uyi, 25 kutubxona, 10 klub muassasasi faoliyat ko'rsatadi. Tuman markaziy kasalxonasi (235 o'rin), bolalar kasalxonasi, qishloq kasalxonasi, stomatologiya poliklinikasi, 13 feldsher-akusherlik punkti, 6 qishloq vrachlik punkti ishlab turibdi. Taxtako'pir tumanida "Aydos qal'a" sanatoriysi bor. "

---

## **5. Taxtako'pir tumanidagi atmosfera havosining ifloslanish darajasini o'rganish**

JSST ma'lumotlariga ko'ra atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan bevaqt o'limning 80%i yurak ishemik kasalligi va insult natijasida, 14% hollarda o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi yoki quyi nafas yo'llari o'tkir infeksiyalari, 6% hollarda o'pka raki natijasida kelib chiqqan. Ifloslangan havo o'limga sabab bo'luvchi omillar ichida ahamiyati bo'yicha 4-o'rinni egallaydi. Har yili shu sababga ko'ra dunyoning 7 mln aholisi hayotdan ko'z yummoqda ([www.airvisual.com](http://www.airvisual.com) 2018 yil hisoboti/ *Country/region ranking, based on available data from 2018*).

Atmosfera havosining holatini nazorati bo'yicha qonuniy-me'yoriy hujjatlar qatoriga «Aholining sanitar-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida» O'zbekiston respublikasi Qonuni (2015 y.) ; «Atmosfera havosining muhofazasi haqida "O'zbekiston respublikasi Qonuni (1996 y.); «O'zbekiston respublikasi aholi punktlari atmosfera havosining muhofaza qilish bo'yicha sanitar qoida va me'yorlar» Sanitar qoida va me'yorlar O'zR № 0350–17 (2017); «O'zbekiston respublikasi aholi punktlari atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyalari ro'yxati, gigiyenik me'yorlari» Sanitar qoida va me'yorlar O'zR № 0293-11 (2011g.) kabilar kiradi.

O'zbekiston respublikasida atmosfera havosining holati haqida ma'lumot davlat monitoringi asosida shakllantiriladi. Monitoringni O'zbekiston respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<http://www.uznature.uz/>), O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi gidrometeorologiya xizmati markazi

(<http://www.meteo.uz/rus/index.php>), O‘zbekiston respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (<http://www.minzdrav.uz/>) olib boradi.

O‘zbekiston respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi atmosfera havosining monitoringini O‘zR VM tomonidan tasdiqlangan Nizom bo‘yicha koordinatsiya qiladi («Polojenije o gosudarstvennom monitoringe okrujayushchey sredy v Respublike Uzbekistan» 3 aprel 2002 № 111).

O‘zRda atmosferani ifloslanish monitoringi ikki yo‘nalishda ya’ni atmosfera havosi monitoringi va havoni ifloslantiruvchi manbalar monitoringi olib boriladi.

Taxtako‘pir tumani atmosfera havosining sanitariya holati doimiy ravishda nazorat qilib boriladi. Nazorat organlari bo‘lib Respublika Hidrometereologiya markazi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati organlari sanaladi. Respublika hududida joylashgan statsionar postlarda atmosfera havosining fizik va sanitar-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlab turiladi.


Sanitariya – epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Taxtako‘pir tumani bo‘limining ma’lumotlariga ko‘ra atmosfera havosining ifloslanish ko‘rsatkichlari yillar davomida asosan azot oksidi, chang va oltingugurt oksidini aniqlash orqali amalga oshirilgan. Sanitar-kimyoviy tahlilga ko‘ra 2013 yilda 2017 yillar oralig‘ida chang va azot oksidlari bilan ifloslanish oylar mobaynida dinamikada o‘rganilgan (4.1.1-jadval). Shu holatda 2014-2017 yillarda ham oylar dinamikasida ifloslanish o‘rganilgan.

**5.1-jadval.**

**Taxtako‘pir tumani atmosfera havosining oylar dinamikasida ifloslanish o‘rtacha ko‘rsatkichlari.**

2013-2017 yillar	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr	dekabr
SO <sub>2</sub>	0,25	0,31	0,32	0,35	0,39	0,43	0,43	0,45	0,35	0,33	0,31	0,26
NO <sub>2</sub>	0,057	0,058	0,07	0,057	0,055	0,067	0,071	0,066	0,057	0,053	0,054	0,053
changlanganlik	0,46	0,49	0,49	0,48	0,49	0,57	0,58	0,58	0,525	0,5	0,49	0,36

Taxtakopir tumanida 2019 yilda changlanganlik darajasi va azot (II) oksidi bilan ifloslanganlik o'rganildi. 2019 yil mobaynida changlanganlik darajasini aniqlash uchun 88 ta namuna olindi. Olingan namunalardan eng past konsentratsiya 0,32 mg/m<sup>3</sup> ni, eng yuqori konsentratsiya esa 0,63 mg/m<sup>3</sup> aniqlandi (4.1.1-diagramma).



### 5.1.-diagramma. Chang va azot-(II) oksidining konsentratsiyalari.

2019 yilda atmosfera havosining changlanganlik darajasini baholash maqsadida sanitariya kimyoviy laboratoriya tomonidan jami 95 (100%) ta havo namunasi olingan, undan 21tasi gigiyenik talablarga javob bermagan. Bu 22,1% ni tashkil etadi. 95 ta changga olingan havo namunalari oylar bo'yicha tekshirilganda quyidagilar aniqlandi:

Yanvar oyida umumiy namunalar soni 7ta (100%) bo'lib, ulardan 3ta namuna gigiyenik talablarga javob bermagan va 42,8%ni tashkil etdi. Olingan namunalarning yig'indisi 3,37 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,48 mg/m<sup>3</sup> ligi



aniqlandi. Ushbu oyda kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 7 ta bo'lib, ulardan 2 tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 28,5% ni tashkil etdi. Fevral oyida umumiy namunalar soni 7 ta (100%) bo'lib, ulardan barchasi gigiyenik talablarga javob bermadi. Olingan namunalarning yig'indisi 3,81 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,54 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Ushbu oyda kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 7 ta bo'lib, ulardan 2 ta gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 28,5% ni tashkil etdi. Summasi 0,54, o'rtacha konsentratsiya esa 0,07 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Aprel oyida umumiy namunalar soni 12ta (100%) bo'lib, ulardan 3tasi (25%) gigiyenik talablarga javob bermadi. Olingan namunalarning yig'indisi 5,51 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,46 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 12 ta bo'lib, ulardan 4tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 33,3% ni tashkil etdi. Summasi 0,92, o'rtacha konsentratsiya esa 0,08 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. May oyida umumiy namunalar soni 6 ta (100%) bo'lib, ulardan barchasi gigiyenik talablarga javob berdi. Olingan namunalarning yig'indisi 2,61 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,44 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 6 ta bo'lib, ulardan hammasi gigiyenik me'yorlarda ekanligi aniqlandi. Summasi 0,4, o'rtacha konsentratsiya esa 0,07 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Iyun oyida umumiy namunalar soni 12ta (100%) bo'lib, ularning barchasi gigiyenik talablarga javob berdi. Olingan namunalarning yig'indisi 5,07 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,42 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 12 ta bo'lib, ulardan 4tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 33,3% ni tashkil etdi. Summasi 0,88, o'rtacha konsentratsiya esa 0,07 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Iyul oyida umumiy namunalar soni 9ta (100%) bo'lib, ularning barchasi gigiyenik talablarga javob berdi. Olingan namunalarning yig'indisi 3,68 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,41 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun

umumiy namunalar soni 9 ta bo'lib, ulardan 2tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 22,2% ni tashkil etdi. Summasi 0,69, o'rtacha konsentratsiya esa 0,08 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Avgust oyida umumiy namunalar soni 12 ta (100%) bo'lib, ularning 3tasi (25%) gigiyenik talablarga javob bermadi. Olingan namunalarning yig'indisi 5,66 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,47 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 12 ta bo'lib, ulardan 3tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 25% ni tashkil etdi. Summasi 1,26, o'rtacha konsentratsiya esa 0,1 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Sentabr oyida umumiy namunalar soni chang va azot oksidiga har biridan 9tadan (100%) namuna olingan bo'lib, ularning barchasi gigiyenik talablarga javob berdi. Changning yig'indisi 3,6 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtachasi 0,40 mg/m<sup>3</sup>, NO<sub>2</sub> da esa yig'indisi 0,41, o'rtacha konsentratsiya esa 0,05 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Oktabr oyida umumiy namunalar soni 6 ta (100%) bo'lib, ularning barchasi gigiyenik talablarga javob berdi. Olingan namunalarning yig'indisi 2,44 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,41 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 6 ta bo'lib, ulardan 2tasi gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 33,3% ni tashkil etdi. Summasi 0,45, o'rtacha konsentratsiya esa 0,08 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Noyabr oyida umumiy namunalar soni 15 ta (100%) bo'lib, ulardan 5ta namuna gigiyenik talablarga javob bermagan va 33,3%ni tashkil etdi. Olingan namunalarning yig'indisi 7,03 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,47 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Ushbu oyda kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 15 ta bo'lib, ulardan 2ta gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 13,3% ni tashkil etdi. Summasi 0,95, o'rtacha konsentratsiya esa 0,07 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi (3.1.2-jadval).

## 5.2-jadval.


**Taxtako'pir tumani atmosfera havosining oylar davomida kimyoviy ifloslanish ko'rsatkichlari (mg/m<sup>3</sup>).**

2019 yil	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktabr	noyabr	dekabr	O'rtacha yillik
SO <sub>2</sub>		0,514											0,514
NO <sub>2</sub>	0,08	0,071	-	0,077	0,066	0,073	0,076	0,105	0,045	0,075	0,068	-	0,074
changlan ganlik	0,48	0,544	-	0,459	0,435	0,423	0,409	0,472	0,403	0,407	0,469	-	0,451

2019 yilda umumiy namunalar soni 95 ta (100%) bo'lib, ulardan 5ta namuna gigiyenik talablarga javob bermagan va 33,3%ni tashkil etdi. Olingan namunalarning yig'indisi 42,81 mg/m<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, o'rtacha 0,45 mg/m<sup>3</sup> ligi aniqlandi. Kimyoviy ifloslanishni baholash uchun havodan NO<sub>2</sub> tekshirish uchun umumiy namunalar soni 95 ta bo'lib, ulardan 2ta gigiyenik me'yorlardan yuqori ekanligi aniqlandi va u 13,3% ni tashkil etdi. Summasi 3,60, o'rtacha konsentratsiya esa 0,07 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi.

Oylar davomida ko'rsatkichlar tahlil qilinganda chang bo'yicha o'rtacha chang konsentratsiyasi 0,40 dan 0,54 mg/m<sup>3</sup> gacha tebrangan. Eng yuqori konsentratsiya fevral oyida 0,54 mg/m<sup>3</sup> ni, eng past konsentratsiya esa sentyabr oyida 0,40 mg/m<sup>3</sup> aniqlandi.

NO<sub>2</sub> bo'yicha esa eng past konsentratsiya 0,03 mg/m<sup>3</sup> ni, eng yuqori konsentratsiya 0,092 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil etgan.



**5.3.-diagramma. Chang va azot (II)-oksidining oylar bo'yicha konsentratsiyasi.**

Oylar davomida azot (II)-oksidining o'rtacha konsentratsiyasi eng past miqdorlarda sentyabr oyida  $0,05 \text{ mg/m}^3$ , eng yuqori konsentratsiya avgust oyida ya'ni  $0,1 \text{ mg/m}^3$  ekanligi aniqlandi (4.1.2-diagramma).

Xulosa. Chang va  $\text{NO}_2$  bo'yicha konsentratsiyalarni REKdan oshganligini e'tiborga olib profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

## **6. Respublika atmosfera havosining aholi kasallanish holatiga ta'siri.**

Havoning ifloslanishi inson salomatligi uchun xavf omili bo'lgan atrof muhitning asosiy omillaridan biridir. Havoning ifloslanish darajasini pasaytirish bilan davlatlar aholi o'rtasida insult, yurak kasalliklari va o'pka raki, hamda surunkali va o'tkir respirator kasalliklarning astmani qo'shgan holda kamayishiga olib keladilar. Havoning ifloslanish darajasi qancha past bo'lsa, aholining respirator va yurak-qon tomir kasalliklari jihatidan sog'lig'i ham uzoq muddatlarda ham qisqa muddatli istiqbolda yaxshi bo'ladi.

Hozirgi kunda atmosfera havosining ifloslanishi nafaqat bolalar organizmiga balki aholining barcha guruhlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, turli surunkali kasalliklar paydo bo'lishida yetakchi omil sanalmoqda. Kuzatuv mintaqasidagi aholi o'rtasidasida bir qancha kasalliklar ko'p uchramoqda, ularning tahlil natijasiga ko'ra eng ko'p uchraydigani yuqori nafas yo'llari kasalliklari, allergik kasalliklar, bronxit, astma va shu kabi kasalliklar afsuski ko'p uchramokda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra atmosfera havosining ifloslanishi bolalar kasallanishida yetakchi omillardan sanalib, ular 30% ni tashkil etadi. Bunda atrof muhitni ifloslanishi 20%, iqlim sharoitlarini o'zgarishi 10% ni tashkil etadi. Respublikamiz turli mintaqalarida kasallanish ko'rsatkichlari har xil. Masalan, shaharda yashovchi aholi qishloqda yashovchilarga nisbatan ekopatologiyalar soni ko'proq uchraydi, bunga sabab shaharlarda atrof muhitni ifloslovchi ob'ektlar soni ko'p. Ekologik noqulay mintaqalarda yashovchi aholida ko'pgina kasalliklar cho'ziluvchan va surunkali kechish tendensiyasiga ega. Olimlarning e'tirof etishicha, atrof muhitni ifloslantiruvchi yirik ishlab chiqarish korxonalarini yaqinida yashovchi aholini profilaktik emlash ko'pincha kam samarador bo'lar ekan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kasallanishlar sonining ortishiga atrof muhitning bevosita ta'siri va atmosfera havosining ifloslanishi yetakchi omil ekanligining isboti sanaladi.

Respublika va tuman aholisining salomatlik holatiga atmosfera havosining ta'sirini o'rganish maqsadida 2013-2017 yillar dinamikasida aholining kasallanish holatini tahlil qilindi. Buning uchun umumiy aholi sonini aniqlandi (4.2.1 –jadval).


### 6.1 -jadval

#### Respublika aholisining 2013 - 2017 yillardagi demografik ko'rsatkichlari

Yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Jami aholi	1 724 000	1 749 800	1 777 100	1 791 430	1 842 400
Qishloq aholisi	867,7	880,9	899,1	907,855	936,8
Kattalar	1112,1	1136,6	1155,9	1168,556	
Tug'ilish	22,7‰	23,3‰	23,4‰	21,8‰	21,6‰
O'lim darajasi	4,7‰	4,7‰	4,6‰	4,7‰	4,7‰


Respublika aholisining 2013-2017 yillarda umumiy kasallanishini retrospektiv tahlilda quyidagi natijalar olindi (4.2.1-diagramma).

Қорақалпоғистон Республикаси аҳолиснинг динамикада умумий касалланиш даражаси (100 000 аҳоли сонига)



6.1-diagramma. Respublika aholisining dinamikada umumiy kasallanish darajasi (100 000 aholi soniga).

2013 yilda eng ko‘p uchragan kasalliklar quyidagilarni tashkil etdi: qon va qon hosil qilish a‘zolari kasalliklari absolyut soni – 566254 nafarni umumiy kasalliklar 35,1 tashkil etdi. Qon va qon hosil qilish a‘zolari kasalliklari ichida eng ko‘p anemiya kasalligi 564470 ta holat bo‘lib, 35,0 ni tashkil etdi. Ushbu kuzatuv yilida yuqorida ko‘rsatilgan kasalliklar bilan birga ovqat xazm qilish tizimi kasalliklari (115242 ta holat – 715 solishtirma og‘irligi), endokrin tizim kasalliklari esa 129306 ta aniqlandi. Kuzatuv yilida eng kam qayd etilgan kasalliklarga quyidagilar kiradi: allergik rinit (2607 ta holat), astma kasalligi (1893 ta holat), ushbu kasalliklar umumiy solishtirma og‘irligi mos ravishda 0,44 va 0,12 ni tashkil etdi. Shu bilan ushbu yilda eng ko‘p uchragan kasalliklarga 2-o‘rinda nafas olish olish tizimi kasalliklari - 349462 ta aniqlangan bo‘lib, umumiy sonini 21,7 ni tashkil etdi.



**6.2-diagramma. Umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari.**

2014 yilda kasallanish holatini retrospektiv tahlil natijalari quyidagilardan iborat: nazorat yilida ham o‘tgan 2013 yildagidek qon va qon hosil qilish a‘zolari

kasalliklari boshqa nozologik kasalliklarga nisbatan eng ko‘p qayd etildi ya’ni 522 252 ta holat va solishtirma og‘irligi 31,6 ni tashkil etdi, shu bilan birga qon aylanish tizimi kasalliklari (43939 ta holat), nafas olish tizimi kasalliklari 384406 ta holat, ovqat xazm qilish tizim kasalliklari 131950 ta holat qayd etilgan. Eng kam qayd etilgan kasalliklar esa quyidagilardir: qandli diabet – 7696 ta holat, allergik rinit -2556 ta holat, astma kasalligi – 1889, o‘t tosh kasalligi – 1705 tani tashkil etdi.

2015 yilda kasallanish holatini retrospektiv tahlil natijalari quyidagilardan iborat: nazorat yilida qon va qon hosil qilish a‘zolari kasalliklari boshqa nozologik kasalliklarga nisbatan eng ko‘p qayd etildi ya’ni 477 873 ta holat va solishtirma og‘irligi 29,0 ni tashkil etdi, shu bilan birga qon aylanish tizimi kasalliklari (94491 ta holat), nafas olish tizimi kasalliklari 412 876 ta holat, ovqat xazm qilish tizim kasalliklari 133245 ta holat qayd etilgan. Eng kam qayd etilgan kasalliklar esa quyidagilardir: qandli diabet – 8209 ta holat, allergik rinit -2864 ta holat, astma kasalligi – 1702 tani tashkil etdi.


2016 yilda kasallanish holatini retrospektiv tahlil natijalari quyidagilardan iborat: nazorat yilida qon va qon hosil qilish a‘zolari kasalliklari boshqa nozologik kasalliklarga nisbatan eng ko‘p qayd etildi ya’ni 460516 ta holat va solishtirma og‘irligi 27,4 ni tashkil etdi, shu bilan birga qon aylanish tizimi kasalliklari (96782 ta holat), nafas olish tizimi kasalliklari 431668 ta holat, ovqat xazm qilish tizim kasalliklari 142389 ta holat qayd etilgan. Eng kam qayd etilgan kasalliklar esa quyidagilardir: qandli diabet – 8787 ta holat, allergik rinit -2891 ta holat, astma kasalligi – 1642 tani tashkil etdi.

2017 yilda kasallanish holatini retrospektiv tahlil natijalari quyidagilardan iborat: nazorat yilida qon va qon hosil qilish a‘zolari kasalliklari boshqa nozologik kasalliklarga nisbatan eng ko‘p qayd etildi ya’ni 447111 ta holat va solishtirma og‘irligi 26,9 ni tashkil etdi, shu bilan birga qon aylanish tizimi kasalliklari (94331 ta holat), nafas olish tizimi kasalliklari 424801 ta holat, ovqat xazm qilish tizim kasalliklari 137746 ta holat qayd etilgan. Eng kam qayd etilgan kasalliklar esa



quyidagilardir: qandli diabet – 9720 ta holat, allergik rinit -2297 ta holat, astma kasalligi – 1557 tani tashkil etdi.

Ko‘pgina adabiyotlarda ma’lumki atmosfera havosining ifloslanish holati bevosita nafas olish tizimi kasalliklarida yetakchi omil hisoblanadi. Shuning uchun biz 2013-2017 yillar dinamikasida nafas tizimi kasalliklarining strukturasi retrospektiv tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi: 2013 yilda nafas olish tizimi kasalliklari 349462 ta holat qayd etilgan bo‘lib, ularning strukturasi quyidagilar aniqlandi: eng ko‘pini noma’lum etiologiyali surunkali bronxitlar – 27681 ta, astma kasalligi – 1893 ta, allergik rinit – 2607, pnevmoniya (zotiljam) -7071 tani tashkil etdi.



**6.3-diagramma. Yillar mobaynida qon va qon hosil qilish a’zolari kasalliklarining kasallanishlar soni.**

2014 yilda nafas olish tizimi kasalliklari 384406 ta holat qayd etilgan bo‘lib, ularning strukturasi quyidagilar aniqlandi: eng ko‘pini noma’lum etiologiyali surunkali bronxitlar – 29238 ta, astma kasalligi – 1889 ta, allergik rinit – 2556, pnevmoniya (zotiljam) -7006 tani tashkil etdi. 2015 yilda nafas olish tizimi kasalliklari 412 876 ta holat qayd etilgan bo‘lib, ularning stukturasi quyidagilar



kasalligi esa eng kam qayd etish holati 2017 yilda 0.54%, eng ko‘p holat esa 2013 yilda 0,74% qayd etilib, qolgan yillarda yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar orasida aniqlandi. Surunkali noetiologik bronxit esa 2017 yilda 6,5%, eng ko‘p holat esa 2013 yilda 7,9%ni tashkil etdi. Shu bilan birga astma kasalligi ham 2017 yilda eng kami, 2013 yilda eng ko‘p holat (0,36% va 0,54%) aniqlandi. Bu esa aholining atmosfera havosining ifloslanishiga bog‘liq bo‘lgan kasallanish holatini qayd etilishi 2017 yilda 2013 yilga nisbatan barcha nafas olish tizimi kasalliklari kamayganligini ko‘rsatadi, ayniqsa allergik rinit kasalligi esa 20%ga (2013 yilda 0,74%, 2017 yilda 0,54%), surunkali noetiologik bronxit kasalligi 2013 yilga nisbatan 1,4% ga kamaygan (2013 yilda 7,9%, 2017 yilda 6,5%).

### **7. Taxtako‘pir tumani aholisining 2013-2017 yillardagi salomatlik ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumot**

2017 yilda tumanda o‘rtacha soni 39310 ta odamni tashkil etadi. Shulardan, ayollar 19180 ta, qishloq aholisi 22426 tani tashkil etadi. Shundan, 11159 tasi ayollar. Tug‘ilishi ko‘rsatkichi 2014 yilda har 1000 odamga 1804ta bo‘lib, 2013 yil bilan solishtirganda, tug‘ilish ko‘rsatkichi (835dan 728ga 21,6dan 18,4ga) ya‘ni, 3,2 %ga kamaygan. Umumiy o‘lim ko‘rsatkichi 2017 yilda har 1000 odamga 4,5% bo‘lib, 2013 yil bilan solishtirganda (4,7) o‘lim ko‘rsatkichi kamayish tempi 0,2%ni tashkil etadi. 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘lim ko‘rsatkichi 2017 yilda har 1000 tirik tug‘ilgan bolaga 7, 2013 yilda 5,9 ni tashkil etadi.

2017 yilda barchasi bo‘lib, 55352 ta kasallik ro‘yxatga olingan. Umumiy kasalliklarda intensiv ko‘rsatkichi Taxtako‘pir tuman kasalxonasida har 1000 ta aholiga 1400,5 bulib, 2013 yilga (915) nisbatan 53 % ga ko‘paygan. Shulardan, o‘sma kasalliklari 15,3% (3,9-4,3), endokrin tizimi kasalliklari 17 % (68,8-80,5), qandli diabet kasalliklari 118% (2,5-5,45), kon va kon tizimi kasalliklari 40% (147-205,4) shundan kamqonlik 40% (147-205,4), nerv tizimi kasalliklari 67% (17,6-29,4), periferik nerv tizimi kasalliklari 448% (3,6-21,2), surunkali otit kasalligi 58,7% (9-61,8), qon aylanish tizimi kasalliklari 18,6% (51-60,5), nafas olish tizimi kasalliklari 79% (360,6-645,5).



**7.1-diagramma. Taxtako‘pir tumani aholisining dinamikada nafas yo‘llari kasalliklari bilan kasallanish darajasi (1000 aholi soniga).**

Astma kasalliklari 26% (0,5-0,63), xazm qilish tizimi kasalliklari 117% (43,8-95), shundan 12 barmoqli ichak kasalligi 16% (1,9-2,2), o‘t tosh kasalliklari 43% (0,6-86), siydik yo‘li kasalliklari 22% (38,6-47), siydik tosh kasalliklari 47 % (0,1-17,0), teri va teri osti kasalliklari 45ga (31,1-45). Suyak mushak tizimi kasalliklari 60%ga (19,6-31,3) tug‘ma anomaliya 1078% (0,9-10,6) ko‘paygan. Boshqa ayrim kasalliklar: endemik bo‘qoq 22% (33,0-25,65), yaqindan ko‘raolmaslik 86% (1,8-0,25), bronxit va emfizema 21% (14-11,0) (4.3.2-diagramma).



**7.2-diagramma. Taxtako‘pir tumani aholisining nafas yo‘llari kasalliklari bilan kasallanish strukturasi.**

2017 yilda tuman jami aholisining umumiy kasallanishlar soni 33314ta. Bunda intensiv ko‘rsatkichi 1571 bo‘lgan. 2013 yilga nisbatan solishtirganda (39238, intensiv ko‘rsatkichi 1015,6) 55%ga ko‘paygan. Shulardan, endokrin tizimi kasalliklari 44%ga (10,7-7,8), endemik bo‘qoq 14%ga (33,4-38,2), qandli diabet kasalliklari 104%ga (2,4-4,9), psixologik o‘zgarishlar 54%ga (23-35,5), nerv tizimi kasalliklari 10.2%ga (19,9-40,2), qon va qon xosil qilish tizimi kasalliklari 38%ga (56,4-78), nafas olish tizimi kasalliklari 119%ga (326-714), pnevmoniya 9%ga (7,4-8,1), bronxit, emfizema 14%ga (14,2-16,2), bronxial astma 60%ga (0,5-0,8), ovqat xazm qilish tizimi kasalliklari 90%ga (45,6-86,5), siydik tizimi kasalliklari 10,5%ga (42,8-47,3), teri va teri osti kasalliklari 6%ga (32,0-34,0), suyak mushak tizimi kasalliklari 57%ga (22,3-35,3), jarohatlanishlar va zaharlanishlar 25%ga (2,4-3,0) ko‘paygan.

Yana ayrim kasalliklar kamayish tendensiyasiga ega. Masalan, periferik nerv tizimi kasalliklari 65%ga (3,9-1,36), yaqindan ko‘raolmaslik 10%ga (2,0-0,2), surunkali otit 26%ga (10,1-7,4), allergik rinit 57%ga (11,7-5,0), oshqozon va 12-

barmoqli ichak kasalliklari 37%ga (1,8-1,1), o't-tosh kasalligi 21%ga (0,8-0,6), tug'ma nuqsonlar 6%ga (0,8-0,7) kamaygan.

### **8.Tuman aholisi o'rtasidagi birlamchi kasallanish ko'rsatkichlari**

2017 yilda tumanda yashovchi aholisi orasida 16201ta birlamchi kasallanishlar aniklangan. Intensiv ko'rsatkichi 2013 yilga solishtirganda (420,4-763,0) ya'ni 81%ga ko'paygan. Ayrim kasalliklar, masalan, endemik bo'qoq 4%ga (2,2-2,3), qandli diabet kasalliklari 4%ga (0,5-0,52), qon va qon xosil kilish tizimi kasalliklari 156%ga (75,0-192,1), shundan anemiya 156%ga (75-192,1), periferik nerv tizimi kasalliklari 161%ga (9,2-24), qon xosil kilish tizimi kasalliklari 37%ga (27,8-38,1), nafas olish tizimi kasalliklari 108%ga (164-341,0), oshkozon ichak tizimi kasalliklari 80,4%ga (25-45,1), o't tosh kasalligi 110%ga (0,2-0,42), teri va teri osti kasalliklari 100 %ga (9,5-19,0), jarohatlanishlar va zaharlanishlar 25%ga (2,4-3,0) ko'paygan.

2017 yilda ko'pchilik kasalliklar kamayish tendensiyasi kuzatildi. Masalan, o'sma 44%ga (4,4-0,09), endokrin tizimi kasalliklari 27%ga (10,7-7,8), psixologik o'zgarishlar 53%ga (0,3-0,14), yaqindan ko'raolmaslik 50%ga (0,2-0,1), surunkali otit 72%ga (5,5-1,5), allergik rinit 86%ga (6,4-0,9), pnevmoniya 21%ga (4,7-3,7), bronxit, emfizema 48% (7,1-3,67), bronxial astma 37%ga (0,3-0,18), oshqozon va 12 barmoqli ichak kasalliklari 21%ga (0,3-0,23), teri va teri osti kletchatkasi kasalliklari 17%ga (21,1-17,4) kamaygan.

### **9.Ayollar o'rtasida umumiy kasallanishlar holatlari**

2017 yilda ayollar aholisi o'rtasida absolyut ko'rsatkichi 27295 ta kasallanishlar ro'yxatga olingan. 2013 yil bilan solishtirganda, 18234 ta kasallik olingan intensiv ko'rsatkichi (953,9-1423,3) 49%ga ko'paygan. Bular ichida ko'pgina kasalliklar ko'payish tendensiyasiga ega. Masalan, endokrin tizimi kasalliklari 27%ga (81,7-103,6), qon ishlab chikarish tizimi kasalliklari 71%ga (142,1-243), shundan anemiya 71%ga (142,1-243), nerv sistemasi kasalliklari 137%ga (14,0-33,2), periferik nerv tizimi kasalliklari 526%ga (3,4-21,3), surunkali

otit 580%ga (9,0-61,2), qon aylanish tizimi kasalliklari 39%ga (49,5-69), nafas olish tizimi kasalliklari 62%ga (370-601,0), allergik rinit 443%ga (12,9-70,0), pnevmoniya 15%ga (7,8-8,96), bronxit emfizema 15%ga (13,0-15,0), astma va astmatik status 60%ga (0,5-0,8), 60%ga (0,5-0,8), ovqat xazm kilish kasalliklari 99%ga (46,9-93,3), oshqozon va 12 barmoqli ichak kasalliklari 360% ga (0,6-2,76), o't tosh kasalliklari 14%ga (0,7-0,8), teri va teri osti kletchatkasi kasalliklari 13%ga (30,9-34,8), suyak mushak tizimi kasalliklari 59%ga (19,5-31), tug'ma nuqsonlar 30%ga (0,8-1,04) ko'paygan.

2017 yilda aholi orasida boshqa ayrim kasalliklar kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Masalan, endemik bo'qoq 41%ga (52-30,5), qandli diabet 90%ga (3,6-5,4), psixologik o'zgarishlar 8%ga (23,2-21,3), yaqindan ko'raolmaslik 63%ga (0,7-0,26) kamaygan.

Taxtako'pir tumanida yashovchi ayollarning 2013-2017 yillarda umumiy kasallanishini retrospektiv tahlilda quyidagi natijalar olindi.

2013 yilda eng ko'p uchragan kasalliklar quyidagilarni tashkil etdi: 1-o'rinda nafas olish olish tizimi kasalliklari - 7074 ta aniqlangan bo'lib, solishtirma ulushi 38,8 ni tashkil etdi. 2-o'rinda qon va qon hosil qilish a'zolari kasalliklari absolyut soni – 2717 nafarni solishtirma ulushi 14,9 tashkil etdi. Qon va qon hosil qilish a'zolari kasalliklari ichida eng ko'p anemiya kasalligi 2417 ta holat bo'lib, 11,9 ni tashkil etdi. Ushbu kuzatuv yilida yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar bilan birga ovqat xazm qilish tizimi kasalliklari (7074 ta holat – 38,8 solishtirma ulushi), endokrin tizim kasalliklari esa 1563 ta aniqlandi. Kuzatuv yilida eng kam qayd etilgan kasalliklarga quyidagilar kiradi: siydik-tosh kasalligi (3 ta holat-0,03 solishtirma ulushi), oshqozon yara kasalligi 12 ta holat (solishtirma ulushi -0,06), astma kasalligi 11ta holat (solishtirma ulushi 0,06) ni tashkil etdi. 2014 yilda kasallanish holatini retrospektiv tahlil natijalari quyidagilardan iborat: umumiy kasallanish holati 20792 ni tashkil etdi. Birinchi o'rinda nafas olish olish tizimi kasalliklari - 7344 ta aniqlangan bo'lib, solishtirma ulushi 35,3 ni tashkil etdi. 2-o'rinda qon va qon hosil qilish a'zolari kasalliklari absolyut soni – 3390 nafarni,

